

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANTIRISHGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Aliyeva Odila Madamin qizi
MTTDMQTUMOI tayanch doktoranti
eraliyevaodila1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada neyropedagogika fan sohasining mohiyati va kognitiv jarayonlarning o'zaro rivojlanishining mohiyati yoritib o'tilgan. Bundan tashqari bu fan sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib brogan olimlarimizning fikrlari va izlanishlari ham keltirib o'tilgan. Bu ikki jarayonning o'zaro birlashuvi bolalarning bilim olish imkoniyatini kengaytirishi haqida ham so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: neyropedagogika, kognitiv jarayonlar, sezgi a'zolari, idrok, tafakkur, diagnostika, miya faoliyati, neyropsixologiya.

СУЩНОСТЬ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Алиева Одила Мадаминовна
ИППКДСПДОУ докторант
eraliyevaodila1@gmail.com

Аннотация. В данной статье освещается сущность нейрopedagogики как научной области, а также суть взаимного развития когнитивных процессов. Кроме того, приводятся мнения и исследования наших учёных, проводивших научные исследования в этой области. Также обсуждается, как объединение этих двух процессов может расширить возможности получения знаний детьми.

Ключевые слова: нейрopedagogика, когнитивные процессы, органы чувств, восприятие, мышление, диагностика, деятельность мозга, нейрopsихология.

THE ESSENCE OF COGNITIVE DEVELOPMENT OF SENIOR PRESCHOOL CHILDREN BASED ON NEUROPEDAGOGICAL APPROACHES

Alieva Odila Madaminovna
IRATDSEPI PhD student
eraliyevaodila1@gmail.com

Annotation. *This article highlights the essence of neuro-pedagogy as a scientific field and the nature of the mutual development of cognitive processes. It also includes the views and research of our scientists who have conducted studies in this field. Moreover, it discusses how the integration of these two processes can expand children's learning opportunities.*

Key words: *neuro-pedagogy, cognitive processes, sensory organs, perception, thinking, diagnostics, brain activity, neuropsychology.*

Kirish. Neyropedagogika – kognitiv neyrologiya, differensial psixofiziologiya va neyropsixologiyaning bola shaxsi tomonidan turli o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda uning bosh miyasi faoliyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda bola va pedagogning individual o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda lateratsiya profillarining o‘zaro muvofiqligini inobatga olib, uni samarali tashkil etish tamoyillarini o‘rganadigan ilmiy sohadir [1,6]. Ya’ni bolaning aqliy qobiliyatidan kelib chiqqan holatda va o‘ng va chap miya yarimsharlarining ishlash funksiyasi va kognitiv jarayonlarning o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradigan vazifalari asosida bolalarga ta’lim berish jarayoni hisoblanadi. Bunda yuqorida sanab o‘tilgan biologik va ta’limiy jarayonda ishtirok etadigan jarayonlar asosida ta’lim berish jarayonini bolalarga moslashtirishdir.

Asosiy qism. Neyropedagogikaning fan sifatidagi asosiy maqsadi – inson bosh miyasi faoliyatida oliy psixik funksiyalarning individual xususiyatlarini xisobga olib pedagogik vazifalarni samarali hal etilishi uchun amaliy yordam berishdan iborat [1,7]. Neyrofanlar – neyropsixologiya, neyrobiologiya, neyroxirurgiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida bosh miya yarimsharlarining yetakchiligi (dominantligi) turlicha bo‘lgan odamlarda ma’lumotlarni qabul qilish, xotirada

saqlash, tushunish va o‘zlashtirish strategiyalari turlicha ekanligi o‘z tasdig‘ini topgan. Ya’ni insonning miya faoliyatining ishlash funksiyasi dominantligini tashhis etadigan bo‘lsak, biz ularni uchta darajaga ajratishimiz mumkin. Yuqori, o‘rta va quyi darajada ishlovchi va axborotlarni ham huddi shu uch shaklda qabul qiluvchiga. Bunda ma’lumotlarni qabul qilish esda saqlash va qayta sintez qilish jarayoni ham keng ma’noda va tor ma’noda amalga oshiriladi. Garchi ushbu yo‘nalishda olib borilgan nazariy izlanishlar asta-sekin o‘quv jarayoniga joriy etilayotgan bo‘lsa-da, hali-hanuzgacha aniq metodik va amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqilmagan. Shu sababli neyropedagogika sohasidagi mavjud nazariy bilimlarni ta’lim jarayonini intensivlashtirish, uni samarali tashkil etish hamda boshqarish uchun amaliyotga tadbiq etish pedagogika sohasidagi olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda [1,16]. Bu soha bo‘yicha ko‘plab va chuqurroq ilmiy izlanishlar amalga oshirilsa, bolalarning bilimni o‘zlashtirish darajasi yuqori darajaga chiqadi va biz keljakda ko‘plab sohalarda, ko‘plab yutuqlarga erishishimiz mumkin.

P. Volf, E. Jensen va B. Given tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda inson miyasi haqidagi bilimlarni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari keng qamrovda yoritilgan bo‘lib, faqatgina bosh miya yarimsharlari asimmetriyasini o‘rganish bilangina cheklanilmasdan, balki miya faoliyatining ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan barcha jihatlarini chuqur tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan [1,16]. Shu tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holatda hamda kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash va uni amaliyotga tadbiq etish, turli xil metodik tavsiyalar ishlab chiqish bu sohani jadallashuviga olib keladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning sezgi a’zolari hamda idrok funksiyalarining jadal rivojlanish bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Aynan shu davrda bolalar atrof-muhitdagi predmetlarning o‘lchami, shakli va rangini aniqlashda sezgi va idrok mexanizmlaridan faol foydalanadilar.

Ularning sezgi a’zolari (ko‘rish, eshitish, hid, ta’m-teri, taktil) va idroklari dunyoni bilish qurolidir. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi, avvalo, ularning sezgi a’zolari va idrok tizimlarining shakllanish darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Chunki bola tafakkuri va bilish jarayonlarining rivoji aynan sezgi va idrok faoliyatining sifatiga tayanadi [2,324]. Ularning sezgi a’zolarining va idroki qanchalik yuqori darajada bo‘lishi, bolalarning dunyoni anglab yetishi va u haqida ko‘plab bilimlar to‘plashiga va ularni hayoti davomida duch

keladigan muammolarga yechim sifatida foydalanishi, bolalarda mantiqiy fikrlash jarayonlarini ham shakllantirib boradi.

Rus psixologlaridan S.L.Rubinshteyn, S.N.Shabalin va M.N.Volokitinalar tajribalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalar aniq narsalarning shaklinigina emas, balki bu narsalarning qora rang bilan qilgan siluetlariga (andazalariga) qarab ham ularni bir-biridan farqlay oladilar [2, 330]. Bundan ko‘rinib turibdiki bolalarning tasavvur qilishi va idrokining rivojlanish darajasi bu davrda ancha yuqori bo‘ladi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish jarayonida nafaqat fikrlash faoliyatini rivojlantirish, balki mantiqiy xulosalar chiqarish, sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, tahliliy yondashuvni shakllantirish ham ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga, bolalarning qiziquvchanlik, zukkolik, mustaqil fikrlash, kuzatuvchanlik, diqqat, xotira kabi psixik va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish ham ushbu jarayonning asosiy pedagogik maqsadlaridan biri hisoblanadi [3, 1045]. Bu jarayonlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Ya’ni har bir jarayon birin ketin bir-birini to‘ldirib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini o‘rganishda D. B. Godovikovaning qarashlariga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, kognitiv faoliyat — bu bolaning atrof-muhitdagi hodisalar va voqealar haqida bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, ya’ni kognitiv ehtiyoj asosida shakllanadigan bilishga qaratilgan faol aqliy jarayondir. Kognitiv faoliyat, uning fikriga ko‘ra, aniq tashqi ko‘rinishga ega, unga asoslanib, uni tashkil etish, mohiyatini baholash mumkin [4, 3]. Shuni ham nazarda tutishimiz kerakki, kognitiv jarayonlar natijasida bola bir bilimni olishi natijasida unda savol tug‘iladi va bir bilim ikkinchi bilimni bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. Shu bilan birga bola hayoti davomida o‘zaro zanjir shaklida atrof-muhitdan turli bilimlarni egallab boradi.

G.I. Shchukina “kognitiv faoliyat” ni shaxsning sifati, ya’ni shaxsning bilimga bo‘lgan intilishini o‘z ichiga olgan, bilish jarayoniga intellektual munosabatni ifoda etadi. Shaxsning sifatleri, uning nuqtai nazariga ko‘ra, bilim olishga bo‘lgan doimiy intilishning natijasi sifatida kognitiv faoliyat orqali shakllanadi.

Shaxs darajasida kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi asosan kognitiv faoliyatning motivatsiyasini va maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim qiziqishlarini shakllantirish usullarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq [5, 23].

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotlar hamda olimlarimizning fikridan kelib chiqadigan bo’lsak, neyropedagogik sohaning rivojlanishi biz uchun va bolalarning ko’plab bilimlarni o’zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochilishiga olib keladi. Bu fan sohasi bilan birgalikda kognitiv jarayonlarni rivojlantirishimiz orqali bolaga beriladigan bilimlarimizni oson usullar asosida bolalarga yetkazishimiz mumkin. Bu bilimlar asosida bolalar hayoti davomida duch keladigan muammoli vaziyatlardan qiynalmasdan chiqishi va ularga to’g’ri yechim topishiga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Dj.R.Gulyamov, M.T.Axmedova. NEYROPEDAGOGIKA.// O’quv-uslubiy qo’llanma. 2020.-B.6,7,16.
- 2) Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi boalar psixologiyasi.// O’quv qo’llanma. 2017. -B.324, 330
- 3) Hamroyeva N.N. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda kognitiv rivojlanishning xususiyatlari. // Международный научный журнал «Научный Фокус». 2023. -B-1045
- 4) Muxamedova Sh.S. Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiqi qilinishi.// central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). 2022. №-2. -B.3
- 5) Abdugapirova G. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali matematik tasavvurlarni shakllantirishning zamonaviy usullari.//Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. 2021. №-3. -B.23
- 6) Xolyigitova, B. K. (2021). Bolaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish. Вестник магистратуры, (1-3 (112)), 64-65.